



**“KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY
XUSUSIYATLARI”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**



NAMANGAN – 2024



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**“KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK,
PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
TO‘PLAMI**

2024-yil 17 – 18 aprel

**СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ ТЕМЕ: «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ,
ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ»**

17 – 18 апреля 2024 года

NAMANGAN – 2024

“Kelajak o‘qituvchisini tayyorlashning pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. Namangan davlat pedagogika instituti. 17 – 18-aprel 2024-yil / Bosh muharrir A.X.Satarov. Namangan: 2024. – 636 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida **“Kelajak o‘qituvchisini tayyorlashning pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Konferensiya materiallaridan pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

- R.Zamilova** – pedagogika fanlari doktori, professor;
M.Nishanov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
M.Maqsudova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Tashkiliy qo‘mita:

- B.Xusanov** – Namangan davlat pedagogika instituti rektori;
M.Qodirxonov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;
J.Yuldashev – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;
D.Oribboyeva – Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, dotsent;
A.Satarov – Pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti, p.f.n.;
S.Sulaymonova – Pedagogika va psixologiya kafedrasini v.b. dotsenti;
A.Siddiqov – Pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
M.Roziqova – Pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
M.Voxobova – Pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
A.Xasanboyev – NamDPI magistranti.

“Kelajak o‘qituvchisini tayyorlashning pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 12-aprel 2024-yildagi 04-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (**Bayonnoma № 04**).

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

SO‘Z BOSHI

*Xusanov Bahodir Ergashevich,
Namangan davlat pedagogika
instituti rektori, professor*

Inson hayotining mazmuni, uning sir-asrorlarini ilm, ta’lim va tarbiyadan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Insonning hayoti mana shu uchta makonga chambarchas daxldor. Bu uchta makonning ibtidosi ham va intihosi ham “o‘qituvchi” nomi bilan bog‘langan.

Haqiqatdan ham bugungi kunda fidoyi ustoz va murabbiylarning ezgu xizmatlari tufayli yoshlarimiz har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetayotgani, fan va texnika, madaniyat va san’at, sport sohalarida qanday katta marralarni qo‘lga kiritayotgani barchamizga ma’lum.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich. o‘qituvchi va murabbiylarimizning kasb bayramlari munosabati bilan yo‘llagan tabriklarida “Shaxsan men o‘qituvchi deganda – zamon bilan hamqadam bo‘lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda – bilim va ma’rifat yog‘dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo‘yiladigan tabarruk maskanni ko‘z oldimga keltiraman” deya ustozlar sharafiga o‘zlarining chuqur xurmat va e’tiborlarini bildirgan edilar.

Ma’lumki “O‘qituvchi”lik kasbi dunyodagi eng hurmatli, sharaflil va mas’uliyatli kasblardan biridir. O‘qituvchi – yurt kelajagini barpo etuvchi shaxs, chunki uning mehnati yosh avlodning bilimi, e’tiqodi, madaniyati, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga bevosita ta’sir qiladi.

O‘qituvchi – qadimdan turli davlatlarda nafaqat oddiy aholi, balki davlat rahbarlari tomonidan hurmatlanib, ardoqlanib kelgan kasb egalari. Ularni turlicha atash mumkin: o‘qituvchi, murabbiy, ustoz, muallim va boshqalar. Ularning barchasida bir ma’no anglashiladi: Ziyoli! Haqiqatdan ham, o‘qituvchilar ziyo tarqatuvchilardir. Maktabga ilk qadam qo‘ygan bolani qo‘lidan tutib, o‘zida bor bilimni berish barobarida unga dunyoni tanishtiradi. Bolani oppoq varaq deb faraz qilsak, ustoz unda turli tasvirlarni tasvirlaydigan rassom misolidir.

O‘qituvchi jamiyatning asosiy shaxsi sifatida shuni yodda tutishi kerakki, yurtimiz kelajagi o‘qituvchining mehnatiga uning o‘z o‘quvchilariga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Zero yaxshi o‘qituvchi adolatli bo‘lishi, bolalarni sevisi, o‘z sohasini yetarlicha egallagan bo‘lishi, muomala madaniyatiga ega bo‘lishi, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatni aralashtirib yubormasligi, o‘z ishiga ma’suliyat bilan yondashishi, O‘zbekiston kelajagining taqdiri o‘zini qo‘lida ekanligini anglagan holda yosh avlodni tarbiyalash uchun mehnat qilishi hamda har bir o‘quvchi bilan ularning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatda bo‘lishi lozim.

Zero jamiyat kelajak o‘qituvchilaridan shunday salohiyatni talab etar ekan, pedagog tayyorlovchi oliy ta’lim muassasasi sifatida biz o‘z oldimizga mutaxassis sifatida tayyorlashni reja qilgan “Kelajak o‘qituvchilari” tajriba o‘tkazishdan, yangiliklarni sinovdan o‘tkazishdan qo‘rqmaydigan, bilim berishning va o‘z ustida ishlashning yaangi shakllari va usullarini izlaydigan, dars jarayoniga kreativ yondoshadigan, o‘qitishning innovatsion usullardan foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalashni bilim berishni maqsad qilib qo‘yganmiz. Ma’lumki bunday mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj albatta mehnat bozorida yuqori talabga ega bo‘ladi. Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirishda, zamonaviy bilim va texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmasiga ega, yuqori malakali professional pedagoglarni yetishtirish uchun institutimizda barcha qulayliklar mavjud bo‘lib, kelajakda jamiyatimizning rivoji uchun o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shadilar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi PQ-4642-sonli "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

4. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // International Multidisciplinary Scientific Journal (IMSJ) ISSN: 2091-573X. With Impact Factor: 3.2. Volume 1. Issue 1, June 2021. – P. 36 – 37. Google scholarship <https://www.sciencepublish.org/>

5. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati / «Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш: янги шакллар ва таълим мазмуни» мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / Низомий номидаги ТДПУ. – Тошкент. 2020 йил 13 май. – Электрон тўплам. – Б. 303 – 305.

6. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 276 – 281.

7. Salaeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209 – 213.

8. Wan Ng "New Digital Technology in Education, Conceptualizing Professional Learning for Educators" University of Technology Sydney, School of Education Sydney, NSW, Australia 2015

CHIZMA GEOMETRIYA FANIDA NUQTANING OKTANTDAGI PROYEKSIYALARINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING NAZARIY VA AMALIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH

*Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası
katta o'qituvchisi jumayev@cspi.uz +998909022793*

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2-oktandda joylashgan nuqtani tushuntirish yo'li bilan talabalarga nazariy va amaliy bilimlari aloqadorligini ta'minlash orqali fazoviy tasavvurini rivojlantirish ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: nuqta, chiziq, fazo, jism, metrik, pozitsion geometrik tushuncha, hajm, yuza, uzunlik.

Hozirgi kunga kelib barcha Oliy O'quv yurtlarida chizma geometriya fani, fan sifatida o'tib kelinmoqda. Chizma geometriya fani aniq fanlardan biri hisoblanib, undagi mavjud bo'lgan qonun-qoidalarga muvofiq tarzda tasvir(chizma)larni fazoviy tasavvurimiz orqali qog'ozda chizishimizdir. Bu fan asosan insonda fazoviy tasavvurni yanada kuchliroq shakllantirib, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu fanning hayotimizda tutgan o'rni juda katta hisoblanadi. Jumladan hozirgi kunda bu fanning hayotimizda tutgan o'rniga misol tariqasida bino inshootlari, kundalik hayotimizda foydalaniladigan maishiy texnikalarimiz, avtomobil va hokazolarda ko'rishimiz mumkin.

Chizma geometriya fani bizning tasavvurimizni kengaytirib, dunyo qarashimizni yanada kuchliroq bo'lishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Chizma chizishdan avval chizmaning qanday ekanligiga, mavzusiga va qonun-qoidalariga amal qilgan holda chizishimiz zarur. Chizmani tushunmasdan yokida uning qonun-qoidalariga ahamiyat bermasak bu fanni o'zlashtira

ololmaymiz. Hozirgi kunda ko'plab talabalarning muammosi ham mana shunda hisoblanib, yani talabalar chizma geometriya darsini tushunmay o'zlashtirishga qiynalishadi va bevosita bunga ustozlar aybdordek ko'rinadi. Chizmani tushunmaganliklari uchun ham bu fan ularga qiyin tuyuladi, xuddiki murakkab narsadek ko'rinadi. Aslini olib qaraganda bu fan juda qiziqarli va o'ziga xos aniq fan hisoblanadi. Chizma geometriya fani o'zida aniqlikni talab qiladi, birorta arzimagan hatolikka yo'l qo'yilsa ham chizmangiz mukkamal darajada chizilmagan hisoblanadi.

Chizma geometriya fanining asosi sifatida uning asosiy geometrik tushunchalar va shakllar tushuniladi. Bunday tushunchalarga nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik, geometrik fazolar kiradi. Bunday tushunchalar chizma geometriya fanining asosiy tayanchi hisoblanadi.

Nuqtaning II-oktantdagi proyeksiyalarini aniqlash 3 bosqichda ko'rsatib o'tilgan.

Masala: 2-oktantdagi koordinatalari orqali berilgan $A(50, -40, 60)$ nuqtaning fazoiy holati va epyuri qurilsin.

Masalaning yechimi: 2-oktantdagi ko'rsatib o'tamiz.

1-bosqich. (Fazoiy holatida). 2-oktandtning fazoiy holati qurilib hosil qilinganidan so'ng, o'zaro perpendikulyar vaziyatda bo'lgan 3 ta tekislik H -gorizantal, V -frontal, W -profil proyeksiyalar tekisligidagi Ox, Oy, Oz o'qlarga koordinata boshidan Ox absissa o'qiga A nuqtaning $x=50$ qiymatini o'lchab olamiz va topilgan nuqtaga A_x yozib qo'yiladi. Koordinata boshidan minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga A nuqtaning $y(-40)$ qiymatini o'lchab qo'yiladi, natijada topilgan nuqta A_y nuqta bo'ladi va koordinata boshidan Oz aplikata o'qiga A nuqtaning $z=60$ qiymatini o'lchab olamiz natijada topilgan nuqtamiz A_z nuqta bo'ladi. **1-rasm, a**

(Epyur holatida). 2-oktant epyur holatida H gorizantal proyeksiyalar tekisligi tepaga harakatlanib V frontal proyeksiyalar tekisligiga birlashadi. V frontal proyeksiyalar tekisligi qo'zg'almas, W profil proyeksiyalar tekisligi chapga ochilib uham V frontal proyeksiyalar tekisligiga birlashadi. Perpendikulyar bo'lgan Ox absissa, Oy ordinata va Oz aplikata o'qlariga, koordinata boshidan A nuqtaning $x=50$ qiymatini Ox absissa o'qiga o'lchab A_x nuqta topiladi, A nuqtaning $y(-40)$ qiymatini minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga o'lchab A_y nuqta topiladi va A nuqtaning $z=60$ qiymatini koordinata boshidan Oz aplikata o'qiga o'lchab A_z nuqta topiladi. **1-rasm, b**

2-bosqich. (Fazoiy holatida). Topilgan A_x, A_y, A_z nuqtalar orqali fazodagi A nuqtaning H gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasini, V frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasini, A nuqtaning W profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyalarini aniqlash uchun, topilgan A_x nuqtadan minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan Ox absissa o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi A nuqtaning H gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasi bo'ladi.


A_x nuqtadan Oz aplikata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_z nuqtadan Ox absissa o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi A nuqtaning V frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasi bo'ladi. A_z nuqtadan minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan Oz aplikata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi A nuqtaning W profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasi bo'ladi. **2-rasm, a**

(Epyur ochilgan holatida). 2-oktant epyur holatidagi Ox absissa o'qida joylashgan A_x nuqtadan minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan Ox absissa o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar chizib olinadi.


Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi H gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasi bo'ladi. Ox absissa o'qida joylashgan A_x nuqtadan Oz aplikata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_z nuqtadan Ox absissa o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar chizib olinadi. Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi V frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasi bo'ladi. Oz aplikata o'qida joylashgan A_z nuqtadan minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan Oz aplikata o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar chizib olinadi. Bu chizilgan ikki to'g'ri chiziqlar kesishgan joyi W profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasi bo'ladi. **2-rasm, b**

3-bosqich.(Fazoviy holatida). 2-oktandda topilgan H gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasidan H gorizantal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to'g'ri chiziq chiziladi yoki Oz aplikata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chizib olinadi. Huddi shu tartibda topilgan V frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasidan V frontal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to'g'ri chiziq chiziladi yoki minus ishoradagi Oy ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq chizib olamiz. Huddi shu tartibda topilgan W profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasidan W profil proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to'g'ri chiziq chiziladi yoki Ox absissa o'qiga parallel to'g'ri chiziq chizib olamiz. Bu chizilgan uchta to'g'ri chiziqlar o'zaro kesishib koordinatalari orqali berilgan fazodagi A nuqta hisoblanadi va berilgan masalaning 2-oktanddagi fazoviy holati tugallangan hisoblanadi. **3-rasm, a**


(Epyur holatida). 2-oktanddagi epyurdagi topilgan H gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasi, V frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasi, W profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasi topilganidan so'ng berilgan masalaning 2-oktandda epyur holatidagi ish tugallangan hisoblanadi. **3-rasm, b**




1-rasm, a




1-rasm, b




2-rasm, a



2-rasm, b



3-rasm, a



3-rasm, b

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pulat Adilov, Isroil Jumaev. (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing. Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977), 102 – 104.
2. Omandovlat o'g'li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O'LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO'LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.". MUFAJLIM XEM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIY № 3-2, 99 – 101.
3. Omandovlat o'g'li, J.I. (2021) CHIZMALARNI AUTOCAD DASTURIDA CHIZISHDA DASTURNING MAVJUD MURAKKABLIKLARINI QO'LDA CHIZISHGA MOSLASHTIRISH (O'RGATISH) USULLARI.". MUFAJLIM XEM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIY № 3-2, 94 – 99.

4. ugli Jumayev, I.O. (2022). USING THE MOST CONVENIENT METHOD OF FINDING EQUAL SIDED POLYGONS (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1271 – 1279.

5. Omandovlat o'g'li, J.I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI". *Maktab va hayot MAXSUS SON*, 2.

6. Jumayev, I. (2020). The conveniences of teaching using autocad software. *Экономика и социум*, (10 (77)), 94-97.

7. Jumayev I.O. (2021). CHIZMACHILIK DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 798 – 808.

8. Jumayev, I.O. (2021). CHIZMACHILIK FANINING PROYEKSION CHIZMACHILIK BO'LIMIDA AUTOCAD DASTURINING UCH O'LCHAMLI IMKONIYATLARINI QO'LLASH VA UNING AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 809 – 814.

9. Omandovlat o'g'li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O'LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO'LLASH USULLARI VA AHAMIYATI". *МУҒАЛЛИМ ХҲМ ҲЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2*, 99 – 101.

10. Isroil, J. (2023). TEACHING STUDENTS TO PROVIDE THEORETICAL AND PRACTICAL KNOWLEDGE IN SOLVING PROBLEMS OF DRAWING GEOMETRY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(11), 61 – 68.

TALABALARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA O'QITUVCHINING O'RNI

Bayjumanova Laziza Abdumanonovna,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Ganiyeva Holida Rustamovna,

Angren texnologiya texnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi

lbayjumanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ takomillashtirishda va pedagogik yo'nalish asosida kommunikativ nutq madaniyati, ta'lim-tarbiya jarayonida muloqat, yangicha qarashlarni shakllanishida o'qituvchining o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, qobiliyat, kreativ, innovatsiya, ko'nikma, malaka, muvaffaqiyat, pedagogik mahorat.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni unib-o'sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari mustaqil O'zbekiston kelajagi bo'lmish yoshlarni har tomonlama kamol topishiga berilayotga e'tibordan darakdir. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, talabalarda kasbiy shakllanishida kommunikativ qobiliyatlarni takomillashtirishda muloqat texnikasidan foydalanish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy islohotlarning maqsadikomil insonni shakllantirishdir. Bu borada pedagogik tizimdagi fanlarning ahamiyati kattadir.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	3
Xusanov Baxodir Ergashevich	

1-YO‘NALISH.

OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA “KELAJAK O‘QITUVCHISI” TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Педагогическая компетентность и развитие креативного мышления у студентов технического вуза	4
Асатов Нурмухаммад Абдуназарович, Абдурахмонов Азизжон Махмуджон угли, Исаев Рафаэль Альбертович	
Роль и особенности контроля знаний студентов в вузах	6
Кахарова М., Дадахонова З.	
Кредитно-модульная система учебного процесса в обучении будущих преподавателей изобразительного искусства	8
Хайров Расим Золимохон углы	
Формирование корпоративной культуры, как условие развития профессиональных компетенций педагогов ДОО	10
Буранова Шохноза Абдуразаковна	
Совершенствование развития инклюзивного образования в высших учебных заведениях Узбекистана	13
Хусанов Аъзамжон Ахмаджанович	
Bo‘lajak musiqa o‘qituvchining estetik didini oshirish zamon talabi	21
Haqqulov Komil	
Sifatli ta‘lim va kadrlarni tayyorlashning dolzarb muammolari	24
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich, Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi	
“Kelajak o‘qituvchisi” ega bo‘lishi kerak bo‘lgan mahoratlar hamda ta‘limdagi zamonaviy pedagogik metodlar tahlili	26
Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi	
Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida	28
Ergashev Abdulloh, Ergasheva Nigoraxon	
Bo‘lajak pedagoglarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni belgilash	31
Maxamadjonov Jaxongir	
Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining jismoniy faolligida chiniqishning o‘ziga xos xususiyatlari	35
Ergasheva Ozoda Asqar qizi, Abdumalikova Mehruzabonu Sharofjon qizi	
Addressing contemporary challenges in training future teachers in higher education institutions	36
Karimjonova Shahlo	
Kelajak o‘qituvchisi fenomeni	38
Boydavlatov Azamat Ahmadali o‘g‘li	
Oliy ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlashning dolzarb muammolari	41
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich, Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi,	

Proyeksiyalash usullarini amaliy ahamiyati haqida	140
Norboboyeva Maftuna Fazliddin qizi, Islomova Ruxshona Salohiddin qizi, Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash	143
Muladjanova Gulchexaxon Abidjanovna, Mullajonova Mubinabonu Doniyor qizi	
Alisher navoiyni pedagogik qarashlarida ta'lim tarbiya masalalari	145
Axmedov Akmal Yusufovich, Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kelajak bunyodkoridir	147
Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasi orqali estetik didni shakllantirish	150
Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o'g'li	
Формы контроля знаний студентов	153
Дадахонова З.	
Chizmachilik fanini kompyuter texnologiyalari vositasidan foydalanib o'qitish	155
Hayitov Javohir Maxtumqul o'g'li	
Chizmachilik fanini o'qitishda kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanish	157
Hayitov Javohir Maxtumqul o'g'li, Abdulkarimov Shoxjahon Abdulaziz o'g'li, Umarova Dinora Sharifjon qizi	
Ijodiy topshiriqlarga asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi	162
Ziyayev Sherali Abdulaziz o'g'li	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash	164
Mirazimov A.T.	
Ion almashinish reaksiyalari mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish metodikasi	167
Xojiyeva Sarvinov Sadridinovna, Sedalova Iroda Saytmurod qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish	170
Nishanova Muslima Qambarali qizi	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari	174
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Chizma geometriya fanida nuqtaning oktantdagi proyeksiyalarini o'qitish orqali talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish	177
Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li	
Talabalarning kasbiy shakllanishida kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishda o'qituvchining o'rni	181
Bayjumanova Laziza Abdumanonovna, Ganiyeva Holida Rustamovna	
Kompyuter grafikasidan foydalanib talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	183
Achilov Nurbek Norboy o'g'li, Xoldarova Dilafruz Dilmurod qizi, Sayfullayeva Sevara Nodirovna, Xolmatov Bakir Batirbay o'g'li, Akromova Nozimaxon Alisher qizi, Sharipova Sabina Sa'dulla qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda musiqiy estetik didni shakllantirish	186
Majidov Dilshod	

Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami



“KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

**Сборник статей международной научно-практической конференции, посвященной теме:
“ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ, ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ”**

*Nashr etilgan materiallar mualliflari iqtiboslar, ismlar, sarlavhalar va boshqa ma’lumotlarning
haqiqiyliigi va to‘g‘riligi, shuningdek, intellektual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi
uchun javobgardir.*

Tahririyat:

Mas’ul muharrir: A.Satarov
Mas’ul muharrir o‘rinbosari: A.Siddiqov
Texnik muharrir: M.Roziqova

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2024-y.
Bichimi 60x90 ¹/₁₆. Xajmi 61 bosma taboq.
Times New Roman garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yashin sanoat” xususiy korxona bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko‘chasi, 71^A-uy.